

Date: 9<sup>th</sup> January-2026

## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVY TARBIYA BERISHNING DOLZARB MASALALARI

Sobirova Dilorom Mirzakbar qizi

Pedagogika nazariyasi va tarixi 2-bosqich magistranti Telefon: +998932112806

[murodullayevadilorom3@gmail.com](mailto:murodullayevadilorom3@gmail.com)

“Yoshlarning odob-axloqi, yurish-turishi va dunyoqarashi milliy qadriyatlarga tayanishi lozim”,

davlatimiz rahbari **Sh.Mirziyoyev**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyaning dolzarb masalalari, raqamli transformatsiya, globallashuv sharoitida yoshlarning ma'naviy tarbiyasi qay darajaga yetib borayotganligi qisqacha yoritilgan. Bunday vaziyatda yoshlar ta'lim va tarbiyasiga oid mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar xususida soʻz borgan. Ota-onalar va pedagoglar bola tarbiyasiga qanday yondashish kerakligi bir necha jahon mamlakatlari tajribasi misolida ochib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** Ta'lim, globallashuv, transformatsiya, pedagog, maktab, yoshlar, ma'naviy tarbiya.

**Annotation:** This article briefly discusses the current issues of spiritual education in the system of continuing education, the level of spiritual education of young people in the conditions of digital transformation and globalization. In this situation, the measures taken in our country for the education and upbringing of young people are discussed. How parents and educators should approach child upbringing is explained using the experience of several countries around the world.

**Keywords:** Education, globalization, transformation, teacher, school, youth, spiritual education.

**KIRISH:** Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya berish – bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va ijtimoiy muhitdagi oʻzgarishlar fonida pedagogik nazariyaning ham, amaliyotning ham ustuvor yoʻnalishiga aylanib bormoqda. Ma'naviy tarbiya, avvalo, inson shaxsini har tomonlama, ayniqsa axloqiy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan shakllantirishga qaratilgan jarayon boʻlib, u uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida — maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'lim, hatto kasbiy rivojlanishgacha boʻlgan bosqichlarda izchil davom etishi lozim. Ma'naviy tarbiyani shakllantirishda bir necha asosiy omillar mavjud: oila, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, kitob, teatr, san'at, diniy va milliy qadriyatlar. Oila — eng muhim asos. Bola dastlabki axloqiy bilim va odob-axloq koʻnikmalarini oilada oladi. Maktab esa bu tarbiyani ilmiy asosda davom ettiradi. Jamiyatdagi ma'naviy muhit, internetdagi axborotlar va zamonaviy texnologiyalar ham bolaning dunyoqarashiga katta ta'sir koʻrsatadi. Shu bois, pedagoglar va ota-onalar tomonidan ongli nazorat va toʻgʻri yoʻnaltirish zarur.



Date: 9<sup>th</sup> January-2026

**ASOSIY QISM:** Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — yosh avlodda milliy g'urur, tarixiy xotira, milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va tolerantlikni shakllantirishdir. Bunda interfaol metodlardan, teatr va madaniy tadbirlardan, ijtimoiy loyihalardan, hamda yoshlar bilan ochiq muloqotdan faol foydalanish muhim. Har bir pedagog yoshlar bilan ishlashda faqat bilim emas, balki hayotiy tajriba, axloqiy namunalar bilan yetakchi bo'lishi kerak. Axborot oqimining haddan tashqari ko'pligi, madaniyatsiz kontentlar va soxta qadriyatlar yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda yoshlar uchun ma'naviy tarbiyaviy platformalar, mobil ilovalar, videodarslar, ma'naviy vloglar yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ota-onalar va pedagoglar axborot xavfsizligini ta'minlab, yoshlarni ijobiy yo'nalishga yo'naltirishda faol bo'lishi lozim. [1]

Pedagoglar yoshlarning dunyoqarashi va axloqiy fazilatlarining rivojlanishida asosiy ro'lda turadi. O'qituvchining shaxsiy namunasi, uning nutqi, odobi va qadriyatlarga munosabati o'quvchilarda ongli ravishda o'z aksini topadi. Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan ta'lim jarayonlarda pedagog o'z faoliyatini yoshlarning yosh xususiyatlari va rivojlanish bosqishlarini inobatga olgan holda ma'naviy tarbiyaga alohida e'tibor berishi juda muhim. Pedagog bolalarda boshlang'ich ta'limdanoq o'quvchilar jamoasini tog'ri tashkil eta olsa, tashkiliy faoliyatlarda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlasa va o'quvchilar o'rtasida psixologik iqlim yarata olsagina ma'naviy tarbiya rivojlanib boradi. Albatta, ushbu jarayonlarni to'g'ri tashkil etish uchun pedagogdan faqat kasbiy mahorat emas balki, ma'naviy tayyorgarlik ham talab etiladi. Pedagog ma'naviy jihatdan yetuk bo'lsa zamonaviy bilim va ma'naviy tarbiyani yangicha metodlar orqali olib borsa, bu bolalarda ma'naviy tarbiyani osongina shakllanishidan darak beradi.[2]

Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz kerakki, ba'zi ta'lim muassasalarida pedagoglar, oilalarda esa ba'zi ota onalar o'z ustilarida muntazam ishlamasliklari, ma'naviy yetuklik va insoniy fazilatlarini rivojlantirishga yetarli ahamiyat bermasliklari natijasida yoshlar uchun namuna bo'la olisholmaydilar va bunda yoshlarning ma'naviy tarbiyasida ham ko'zga ko'rinarli nuqsonlar paydo bo'ladi. O'qituvchi o'z fanidan yetarli bilimga ega bo'lishi mumkin lekin, ma'naviy axloqiy fazilatlariga befarq bo'lsa, uning ta'sirchanlik kuchi kamayadi. Bunga misol qilib shuni aytishim mumkinki, o'qituvchilar bolalarda psixologik iqlimni to'g'ri yarata olmasalar, o'quvchilarning o'rtasida turli nizolar kelib chiqadi. Ya'ni tadbirlar yoki loyihalarga qatnashishda o'qituvchi sinfning fikrini tinglamasa, ularning hissiyotlariga e'tibor bermasa va sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ushbu loyiha va tadbirlarda qo'llab-quvvatlamasa ma'naviy tarbiyaning nuqsonlari ko'payib boraveradi va yoshlarda bir-birlariga bo'lgan o'zaro hurmat, ishonch kabi tushunchalar yo'qolib ketadi. Shuningdek, ba'zi oilalarda farzand tarbiyasi ikkinchi o'ringa tushib qolmoqda. Ijtimoiy va iqtisodiy muammolar ota-onani farzand bilan yaqin muloqotdan chetlashtirmoqda. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'sirida bolalar va o'smirlar virtual dunyoda ko'proq vaqt o'tkazmoqda, bu esa hayotning muhim qadriyatlarini anglashga xalaqit beradi. Ijtimoiy tarmoqlarda



Date: 9<sup>th</sup> January-2026

joylanayotgan va yoshlar tomonidan faol kuzatilayotgan ko'p kontentlar ma'naviy qadriyatlarga zid bo'lgan g'oyalarni targ'ib qiladi.

Ta'lim muassasalarida esa tarbiya ishlarining yetarlicha tizimli olib borilmasligi natijasida darslarda ko'proq bilimga urg'u beriladi, tarbiya esa ikkinchi darajali bo'lib qolmoqda. O'qituvchilarning pedagogik mahorati, tarbiyaviy yondashuvi har doim ham yetarli darajada emas. Zamonaviy hayot tezligi va madaniyatsizlik virusining tarqalishi bilan g'arbcha hayot tarziga ko'r-ko'rona ergashish kuchayib bormoqda. Milliy urf-odat, odob-axloq me'yorlariga nisbatan loqaydlik kuchaymoqda. Yoshlarda hayotga nisbatan maqsadsizlik va mustaqil fikrning yetishmasligida ko'pgina yoshlar o'z oldiga ma'naviy yoki hayotiy yuksak maqsad qo'ya olmayapti. Bunday holat ma'naviy tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishning dolzarb masalaga aylanayotganini ko'rsatmoqda[3]

Bugungi kundagi yoshlarning ijtimoiy va ma'naviy befarqlikda ulg'ayishlari, axloqiy qadriyatlarga nisbatan sovuqqonligi, turli giyohvandlik moddalarning keng tarqalayotganligi bularning hammasi ma'naviy tarbiyadagi nuqsonlar tufaylidir. Mening fikrimcha, pedagoglar faoliyatida malaka oshirish tizimini yangicha yondashuvlar orqali takomillashtirilsa, yoshlarning ta'limi va tarbiyasi bo'yicha doimiy tarzda xalqaro tajribalar almashinuvi yo'lga qo'yilsa va eng muhimi pedagoglarning attestatsiya imtihonlarida faqat kasbiy bilimlari sinovdan o'tkazilmay, ularning yoshlarda qay darajada ma'naviy tarbiyani shakllantira olish qobiliyatlari ham sinovdan o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Agar yuqorida sanab o'tilgan jarayonlar uzluksiz tarzda yo'lga qo'yilsa, nafaqat yoshlarning ma'naviy tarbiyasida balki uzluksiz ta'lim tizimida ham yuksak darajada rivojlanishni kuzatishimiz mumkin bo'ladi.[4]

Albatta, yana bir muhim narsani e'tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur, ya'ni yoshlarning ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanish faqat maktab yoki universitet vazifasi emas. Oila va jamiyat ham yoshlarning ma'naviy tarbiyasi yuksak darajada bo'lib ulg'ayishlarida muhim ahamiyatga ega. Bolani yoshligidan oilasi uning ma'naviy jihatdan nuqsonlarsiz bo'lishini ta'minlasa va bunga pedagoglar ham befarq bo'lishmasa, jamiyatning barcha jabhalarida yuksalish bo'ladi. Shuningdek, Ma'naviy-axloqiy tarbiyani oshirishda oila -tarbiyaning birinchi maktabi hisoblanadi. Mazkur muammoning bartaraf etish yo'li sifatida birinchidan, ota-onalarga psixologik-pedagogik bilim beruvchi seminarlar tashkil etish, farzand bilan mehrli va mas'uliyatli muloqotga e'tiborni kuchaytirish lozim. Ikkinchidan, maktab va o'qituvchi rolini kuchaytirish lozim. Bunda darslardan tashqari tarbiyaviy soatlar, davra suhbatlari va dramatizatsiyalashgan o'yinlar o'tkazib turish, har bir fan o'qituvchisining darslariga ma'naviy-axloqiy qadriyatlar integratsiya qilinishi kerak. Uchinchidan, ma'naviy yetakchilarni maxsus tayyorgarligini oshirish lozim. Bunda mahalladan, maktabdan chiqqan namunali yoshlar faoliyatini ommalashtirish, o'quvchilar orasida liderlik salohiyati bor bolalarga tarbiyaviy tashabbuslar berish, media va madaniyat vositalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish, ma'naviy film, kitob, audio va video kontentlar asosida diskussiya tashkil etish, mobil ilovalar orqali ijobiy qadriyatlarni targ'ib qilish (masalan, kunlik hadis, odob darslari ilovasi) kerak. To'rtinchidan, innovatsion yondashuvlarasosida ma'naviy-axloqiy



Date: 9<sup>th</sup> January-2026



tarbiyaga oid interaktiv platformalar yaratish, tarbiya jarayoniga teatr, animatsiya, musiqiy vositalarni jalb etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bugungi kunda ma'naviy tarbiya har qachongidan ham muhimroq. Yoshlarda axloqiy qadriyatlar sustlashayotgan bo'lsa, bu -jamiyatning e'tiborini yo'qotayotganidan dalolat. Barcha bo'g'inlar -oila, maktab, mahalla, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar birgalikda harakat qilgandagina bu muammoni hal etishlari mumkin.[5]

**XULOSA:** Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki ta'lim tizimining har bir bosqichida uzviylik, izchillik va madaniy-ma'naviy qadriyatlarga tayanilgan holda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlanadi.. Shu bilan birga, amaliyotda qo'llanilayotgan texnologiyalar va metodikalar yana ham takomillashtirilishi lozimligi aytib o'tilgan. Hozirgi globallashtirish va transformatsiyalashgan zamonda yoshlar tarbiyasi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Chunki har narsaga qiziquvchi va ko'pincha oxirini o'ylamaydigan yoshlar noto'g'ri axborotlarga aldanib qolayotgani hech birimizga sir emas. Shunday ekan bunday yomon natijalarning oldini olish maqsadida mamlakatimizda yoshlar siyosati birinchi darajaga qo'yilmoqda. Muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2026-yilni "**Yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o'rgatish yili**" deb e'lon qilinishi ham tarbiyaning amaliy natijadorligiga qaratilgan. Har bir o'zini "o'zbekman" degan yoshlar vatanimiz taraqqiyoti uchun bor kuch, g'ayrati bilan uning istiqboli uchun intilmog'i dardkor.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zokirova D. Yoshlar ma'naviy tarbiyasida axborot texnologiyalarining o'rni. – "Yosh olim" jurnali, 2023, №2
2. Maxkamov, U. I., & Ismoilova, D. M (2021). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlarning shakllari va usullari. Academic research in educational sciences, 2(4), 380-386
3. Uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonida o'qituvchi mahorati. N,U. Maxkamova maqolasi
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining malaka oshirish tizimini takomillashtirish: dolzarb masalalar, nazariy yondashuvlar va istiqbollari. Abdunazarova N. F
5. Valiyeva Feruza Rashidovna, Abdunazarova Nargiza Fatxullayevna, Zakirov Alisher Akbarovich SCOPUS. The importance of ensuring the mental, physical, spiritual development of educators of pre-school educational organizations